

МАQOM XONANDALIGIDA IJRO IMKONIYATLARINI TO‘G‘RI YO‘NALTIRMA BILISH QOIDALARI

Munojatxon Yo‘lchiyeva

Yunus Rajabiy nomidagi O‘Z.Mmsi “Maqom Xonandaligi” kafedrasni Professori,
O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston Qaxramoni.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1547898>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maqom san’ati doirasida xonandaning ijro imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va samarali yo‘naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritiladi. Maqom asarlarining murakkab vokal tuzilmasi, ohangdorlik, frazalash, intonatsiya va badiiy ifoda jihatlari chuqur tahlil qilinib, xonandalarning vokal salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va ijroga moslashtirish masalalari o‘rganiladi. Xususan, maqom xonandasini uchun zarur bo‘lgan vokal tayyorgarlik, nafas boshqaruvi, estetik tafakkur, psixofiziologik muvozanat va ijodiy yondashuvlar muhim omil sifatida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: maqom, xonandalik, ijro texnikasi, nafas boshqaruvi, ovoz diapazoni, intonatsiya, frazalash, estetik ong

ПРАВИЛА ПРАВИЛЬНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ ИСПОЛНЕНИЯ МАКОМА

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические и практические основы правильной оценки и эффективной ориентации исполнительских возможностей певца в рамках статусного искусства. Углубленно анализируются аспекты сложной вокальной структуры, мелодичности, фразировки, интонации и художественной выразительности статусных произведений, исследуются вопросы выявления, развития и адаптации вокального потенциала певцов к исполнению. В частности, важным фактором является вокальная подготовка, контроль дыхания, эстетическое мышление, психофизиологическое равновесие и творческие подходы, необходимые для певца статуса.

Ключевые слова: статус, пение, техника исполнения, контроль дыхания, голосовой диапазон, интонация, фразировка, эстетическая осведомленность

RULES FOR CORRECTLY DIRECTING PERFORMANCE OPPORTUNITIES IN MAQOM SINGING

Abstract. This article covers the theoretical and practical foundations of correctly assessing and effectively directing a singer's performance capabilities within the art of maqom.

The complex vocal structure, melodiousness, phrasing, intonation, and artistic expression aspects of maqom works are deeply analyzed, and the issues of identifying, developing, and adapting singers' vocal potential to performance are studied. In particular, the vocal training, breath control, aesthetic thinking, psychophysiological balance, and creative approaches necessary for a maqom singer are emphasized as important factors.

Keywords: maqom, singing, performance technique, breath control, vocal range, intonation, phrasing, aesthetic consciousness.

Kirish

O‘zbek musiqa san’ati tarixida maqomlar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, "Shashmaqom" tizimi Sharq musiqiy tafakkurining eng murakkab va mukammal namunalaridan biri sifatida tan olingan. Ushbu musiqiy merosni badiiy yuksaklikda ijro etish esa xonandan yuqori vokal mahorat, musiqiy eshituvchanlik, badiiy tafakkur va texnik tayyorgarlikni talab etadi.

Maqom xonandaligida ijroni mukammal tashkil etish uchun xonanda o‘zining vokal imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, bu imkoniyatlarni maqomning ohang tuzilmasi va dramatik rivojlanishiga mos tarzda yo‘naltira olishi zarur. Aks holda, ijro sun’iy, to‘qima va estetik jozibadan yiroq bo‘ladi. Shu bois, maqom ijrochiligi bo‘yicha zamonaviy ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, ularni amaliyatga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

-Tavsify-tahliliy yondashuv – maqom xonandaligining amaliy jihatlarini ilmiy adabiyotlar va amaliy mashg‘ulotlar asosida tahlil qilish;

-Empirik kuzatuv – maqom ansambllarida olib borilgan jonli mashg‘ulotlarda xonandalar faoliyatini kuzatish;

-Taqqoslov metod – turli xonanda maktablari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Termiz)da ovoz imkoniyatlari va ijro uslublarini solishtirish;

-Didaktik-tajriba asosida – talabalarga maqom yo‘llarini o‘rgatish jarayonida vokal imkoniyatlarni aniqlashga qaratilgan sinovlar va baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotda O‘zbekiston davlat konservatoriysi, Yunus Rajabiy nomidagi maqom instituti, Farg‘ona va Xorazm maqom maktablarining ustozlari tajribasi o‘rganildi.

Muxokama va natijalar.

Tadqiqot davomida maqom xonandalarining ijro imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va yo‘naltirishga oid bir nechta muhim natijalar aniqlandi:

Ovoz imkoniyatlari turlari:

-Diapazon kengligi: Ko‘pchilik maqom xonandalari 1,5 oktavadan 2 oktavagacha diapazonga ega. Biroq bu imkoniyatlar noto‘g‘ri yo‘naltirilgan hollarda haddan ortiq zo‘riqish kuzatiladi.

-Tovush tembrining mosligi: Ba’zi xonandalar o‘z tembriga mos bo‘lmagan maqom yo‘llarini ijro etishga urinadi, bu esa estetik muvofiqlikni buzadi.

-Nafas nazorati: Nafas olishning samarasiz tashkil qilinishi frazalarning to‘liq ifodalanmasligiga olib keladi.

3.2. Texnik va estetik tayyorgarlik:

-Nafasni boshqarish va ushlab turish uchun maxsus mashqlar samarador bo‘lishi aniqlangan.

-Toza intonatsiya bilan ijro etishda mikrosezgilar va yuqori eshituvchanlik madaniyati talab qilinadi.

-O‘zbek maqomlaridagi ohang turlari (rast, dugoh, segoh, buzoq) xonandan nozik sezgi va texnik muvozanatni talab qiladi.

3.3. Psixologik va fiziologik tayyorgarlik:

-Xonandaning ruhiy holati, sahna qo‘rquvi, stress holatlari uning ijrosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

-Har bir mashg‘ulotdan oldin psixologik tayyorgarlik mashqlari (diqqat jamlash, yengillik mashqlari) foydali ekani kuzatildi.

Muxokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, maqom xonandaligida ijro imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uni faqat vokal texnika bilan izohlab bo‘lmaydi. Xonanda o‘zining ovoziy tabiatini to‘g‘ri anglash, unga mos maqom yo‘llarini tanlash, nafas texnikasini rivojlantirish, intonatsion sezgirlikni oshirish va ijodiy tafakkur bilan harakat qilish orqali chinakam badiiy ijro sari yo‘l oladi.

Shuningdek, maqom ijrochiligidagi maktabalararo yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Xorazm xonandalik maktabida jo‘shqinlik, nafas kengligi ustuvor bo‘lsa, Buxoro maktabida bosiqlik, ohangdorlik va ichki dramatizmga urg‘u beriladi. Har bir maktab vakili o‘z imkoniyatlariga qarab yo‘nalishi kerak.

Xulosa

Maqom xonandaligida ovoz imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish – bu ijro san’atining bosh omillaridan biridir. Xonanda o‘zining vokal diapazoni, tembr, nafas nazorati va intonatsion imkoniyatlarini mukammal bilishi lozim. Shu asosda maqom asarlarini badiiy, texnik va estetik jihatdan to‘laqonli ijro etish mumkin. Pedagogik yondashuvlar ham ana shu vokal imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Maqom ijrochiligining keyingi rivoji uchun bu yo‘nalishda tizimli metodik materiallar, mashqlar va maktabalararo almashuvlar zarurdir.

REFERENCES

1. Karimov A. O‘zbek maqom san’ati asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2010.
2. Zokirov Sh. Xonandalik mahorati. – Toshkent: San’at, 2015.
3. Rashidov H. Sharq musiqiy merosi va ijrochilik an’analari. – Buxoro, 2020.
4. Qodirov U. Maqom va vokal texnikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
5. Qosimov A. Shashmaqom saboqlari. – Buxoro: Meros, 2018.
6. Jo‘rayev T. Ovoz fiziologiyasi va psixologiyasi. – Andijon, 2021.